

**«TASDIQLAYMAN»**  
**«InFinBANK» AJ**  
**Boshqaruv Raisi o‘rinbosari**  
**P.T.Salimov**

**Milliy va chet el valyutalarida muddatli omonat ochish va unga xizmat  
ko‘rsatish uchun shartnoma tuzish bo‘yicha jismoniy shaxslarga  
OMMAVIY OFERTA**

**1. UMUMIY QOIDALAR**

1.1. O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100029, T.Shevchenko ko‘chasi, 1-uy manzilida joylashgan “Invest Finance Bank” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda “Bank”) ushbu bilan mazkur rasmiy taklifni qabul qilgan jismoniy shaxslarga (keyingi o‘rinlarda “Mijoz”, “Omonatchi”) ga quyida ko‘rsatib o‘tilgan harakatlarni amalga oshirish yo‘li bilan milliy va xorijiy valyutada muddatli omonat bo‘yicha (keyingi o‘rinlarda “bank hisob raqami”, “hisob raqam” yoki “omonat”) amaliyotlarni amalga oshirish yuzasidan xizmatlarni taklif qiladi.

1.2. Ushbu ommaviy oferta Mijozga milliy va xorijiy valyutada muddatli omonat ochishda bank omonati shartnomasi hisoblanadi.

1.3. Ushbu shartnomaning predmeti bo‘lib Bank tomonidan Mijozning pul mablag‘larini muddatli omonatga qabul qilish, barcha turdagi hisob-kitob va kassa xizmatlarini amalga oshirish, Mijozning bank hisob raqamiga tushayotgan pul mablag‘larini qabul qilish va o‘tkazish hamda Mijozning tegishli mablag‘larini o‘tkazish va berish bo‘yicha topshiriqlarini bajarish hisoblanadi.

1.4. Mijoz tomonidan Bank xizmatlari o‘z vaqtida to‘langanda va ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan barcha majburiyatlari bajarilganda Bank tomonidan ushbu shartnoma bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatiladi.

1.5. Omonat muddati tugagandan so‘ng shartnoma talab qilib olin-guncha omonat shartlari bo‘yicha uzaytirilgan hisoblanadi. Talab qilinmagan omonat summasi, shuningdek omonat bo‘yicha barcha hisoblangan, lekin to‘lanmagan foizlar Bankda ochilgan talab qilib olin-guncha hisob raqamiga o‘tkaziladi. Mablag‘lar talab qilib olin-guncha hisob raqamiga o‘tkazilgan paytdan boshlab talab qilib olin-guncha omonat bo‘yicha foizlar Bank Tariflariga muvofiq hisoblab boriladi.

**2. SHARTNOMA TUZISH TARTIBI**

2.1. Ushbu muddatli omonat shartnomasi mijoz-jismoniy shaxslar bilan ommaviy oferta shartlarida tuziladi. Jismoniy shaxs tomonidan mazkur ommaviy ofertaning 1-ilovasidagi shakl bo‘yicha Bankka ariza berilishi va/ yoki Bank mobil ilovasida masofadan omonat ochilishi aksept (ushbu shartnomani tuzishga rozilik) deb hisoblanadi. Mijoz tomonidan ushbu oferta aksept qilingan va omonat summasi Bankka kelib tushgan paytdan boshlab ushbu shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi.

2.2. Bank hisob raqamini ochish mijozning Arizasi hamda uning shaxsini identifikatsiya qilish va verifikatsiyadan o‘tkazish (zarur hollarda) tartib-taomillari asosida amalga oshiriladi.

Mijozning shaxsini tasdiqlash quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin:

(i) shaxsni tasdiqlovchi hujjatning qog‘oz ko‘rinishidagi aslini taqdim etish orqali; va (yoki)

(ii) O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YaIDXP) va “Ijtimoiy karta” mobil ilovasida joriy etiladigan shaxsni tasdiqlovchi elektron hujjatni taqdim etish orqali.

Ushbu usullar bilan olingan elektron hujjatlar va ma'lumotlar qog'ozdagi hujjatlarga teng deb tan olinadi hamda Bank tomonidan majburiy tartibda qabul qilinadi.

Bank taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga shubhalar yuzaga kelgan yoki jinoyiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini bajarish zarur bo'lgan taqdirda hisobvaraqlar ochishni rad etishga yoxud qo'shimcha ma'lumotlar va hujjatlarni so'rab olishga, shuningdek tekshirish bo'yicha boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqli.

Hisobvaraqlar masofadan ochilgan holatlarda, Mijozni identifikatsiya qilish Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

2.3. Omonatning shartlari tegishli omonat pasportida ko'rsatiladi.

2.4. Mijoz tomonidan Bankka tashrif buyurgan holda omonat ochilganida va ushbu omonat pasportida mazkur omonatni Bank mobil ilovasi orqali onlayn boshqarish imkoniyati nazarda tutilgan bo'lsa, Mijoz tomonidan omonat bo'yicha amaliyotlar Bank mobil ilovasi orqali onlayn tarzda amalga oshirilishi mumkin.

### **3. FOIZLARNI HISOBLASH VA HISOBGA O'TKAZISH SHARTLARI**

3.1. Omonat bo'yicha hisoblangan foizlar tegishli omonat shartlariga muvofiq to'lanadi.

Omonat summasiga foizlar u Bankka (Mijozning omonat hisobvaraqlariga) kelib tushgan kunning ertasidan boshlab to u Mijozga qaytariladigan yoki boshqa asoslarga ko'ra Mijozning hisobvaraqlaridan hisobdan chiqariladigan kundan oldingi kungacha hisoblab chiqariladi. Mijozning hisobvaraqlari xatlanganligi oqibatida Bank ushbu hisobvaraqdagi mablag'lardan foydalana olmagan bo'lsa, ushbu davr uchun foizlar hisoblab chiqarilmaydi.

Omonat bo'yicha foizlar har kuni hisoblab yoziladi. Mijoz omonat summasining bir qismini olgan taqdirda (agar bunday operatsiyalarga Omonat shartlari bilan ruxsat etilgan bo'lsa), Bank foizlarni omonatning haqiqiy qoldig'iga hisoblab yozadi.

3.2. Omonatni qisman, shuningdek muddatidan oldin yechib olish, omonatni to'ldirish va boshqalar tegishli omonat shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

3.3. O'zbekiston Respublikasi Soliqlar kodeksiga muvofiq mijoz-norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan va doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan olinadigan soliq norezidentga daromad to'lovchi soliq agenti, ya'ni Bank tomonidan hisoblab chiqariladi va ushlab qolinadi. Soliqlarning ushlab qolinishi soliq to'lovchining daromadlaridan bunday daromadlarning har bir to'lovi paytida amalga oshiriladi.

3.4. O'zbekiston Respublikasining rezident va norezident mijozlarining omonatlarini bo'yicha foizli daromadlarni soliqqa tortish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

### **4. MIJOZNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

**4.1. Mijoz quyidagilarga haqli:**

- Bank hisob raqamida turgan o‘z pul mablag‘larini mustaqil boshqarish, o‘z hisob raqamiga naqd va naqd pulsiz shaklda pul mablag‘lari kiritish;
- agar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ushbu shartnoma va omonat shartlari bo‘yicha omonat mablag‘ini to‘ldirish;
- omonat muddati tugagach, omonatni va u bo‘yicha foizlarni talab qilish;
- Bankdan pul-hisob-kitob hujjatlarini tuzish va bank amaliyotlarini yuritish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni olish;
- naqd pulsiz hisob-kitoblarini rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risida ma’lumot olish;
- hisob raqamdagi mablag‘larni shaxsan hamda o‘z vakili orqali (ishonchnoma asosida) tasarruf etish, agar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari bilan boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa;
- Bankdan ushbu shartnoma shartlariga rioya qilishni talab qilish;
- o‘zi olgan kredit (qarz) bo‘yicha garovda turgan o‘z hisob raqamidagi pul mablag‘larini kredit (qarz) ni to‘lashga yo‘naltirish;
- ushbu shartnomani O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilish;
- ariza asosida SMS-xabardor qilish xizmatidan voz kechish;
- muddatli omonat hisobvarag‘i ochilganda omonat daftar-chasini o‘z xohishiga ko‘ra yozma ariza asosida rasmiylashtirish yoki rasmiylashtirmaslik;
- agar Bankda yangi omonat daftarchalari mavjud bo‘lib, daftarcha sahifalari to‘liq to‘ldirilgan, yaroqsiz holga kelgan yoki yo‘qolgan bo‘lsa, Bank Tariflariga muvofiq (agar bu Bank Tariflari bilan nazarda tutilgan bo‘lsa) vositachilik haqini to‘lab, yangi omonat daftarchasini olish.

#### **4.2. Mijoz quyidagilarni o‘z zimmasiga oladi:**

- Bankda belgilangan ish vaqtiga, to‘lov hujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibiga, amaldagi qonun hujjatlari talablariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me‘yoriy hujjatlariga rioya qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq bank hisob raqami bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- o‘z hisob raqami holati to‘g‘risida ma’lumot olayotganda, o‘tkazilgan amaliyotlarning hisob-kitob hujjatlariga muvofiqligini tekshirish. O‘tkazilgan amaliyotlarda og‘ishlar, buzilishlar yoki shubhalar aniqlangan taqdirda, bunday ma’lumotlar olingan paytdan boshlab 2 ish kunidan kechiktirmay bu haqda Bankni yozma ravishda xabardor qilish;
- xizmatlar ko‘rsatilgan kun amal qilgan hisob raqamga xizmat ko‘rsatish uchun Bank tomonidan belgilangan tariflarga muvofiq bank xizmatlari uchun o‘z vaqtida haq to‘lash;
- Bankka taqdim etilgan hisob-kitob va boshqa hujjatlarda ko‘rsatilgan ma’lumotlarning noto‘g‘riligi uchun mustaqil ravishda to‘liq javobgar bo‘lish;
- shaxsini tasdiqlovchi hujjatlariga kiritilgan o‘zgarishlar, o‘zgargan yashash joyi va bog‘lanish telefon raqamlari to‘g‘risida darhol shu kunning o‘zidayoq Bankni xabardor qilish, shuningdek, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalarini taqdim etish;

- hisob raqam bo'yicha har qanday amaliyotlarni amalga oshirishda shaxsni tasdiqlovchi hujjat (mijoz vakili uchun esa shuningdek belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma) ni taqdim etishi;
- agar mijoz omonatni muddat tugaguniga qadar yoxud omonat shartlarida nazarda tutilgan holatlar yuz berguniga qadar qaytarib berishni talab qilish niyatida bo'lsa, u o'zining bu niyatidan Bankni omonatni olishni mo'ljallayotgan sanadan kamida bir oy oldin xabardor qilishi shart;
- hisob raqam yopilgan kuni omonat daftarchasini Bankka qaytarish (daftarcha yo'qotib qo'yilgan holatlar bundan mustasno);
- masofaviy xizmat ko'rsatish kanallariga kirish uchun Bank tomonidan taqdim etilgan barcha identifikatsiya ma'lumotlarining, jumladan loginlar, parollar, PIN-kodlar, bir martalik parollar (OTP), SMS-kodlar, biometrik ma'lumotlar va boshqa autentifikatsiya vositalarining saqlanishi va maxfiylikini ta'minlash.

4.3. Mijoz O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

## **5. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **5.1. Bank quyidagilarga haqli:**

- hisob raqamga nisbatan talab qo'yilganda pul mablag'larining mavjudligini va Mijozning ushbu mablag'larni hisob raqamdagi mablag' doirasida erkin tasarruf etish huquqini kafolatlagan holda Mijozning bank hisob raqamidagi pul mablag'laridan moliyaviy resurslar manbai sifatida foydalanish;
- omonat muddati tugagandan so'ng va Mijozning uni yopish yoki uzaytirish to'g'risidagi yozma arizasi bo'lmaganda omonat summasini va unga hisoblangan foizlarni talab qilib olin-guncha omonatga o'tkazish;
- Bank tariflariga muvofiq Bankka to'lanishi lozim bo'lgan vositachilik haqini Mijozning hisob raqamidan akseptsiz yechib olish;
- hisob-raqamga xizmat ko'rsatish uchun tariflarni belgilash;
- Mijoz tomonidan amaldagi qonun hujjatlarini, jinoyiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga hamda ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik holatlari mavjud bo'lganda, shuningdek hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi va ularni Bankka taqdim etish muddatlari buzilganda Mijozning bank hisob raqami bo'yicha amaliyotlarni to'xtatib turish yoki ularni amalga oshirishni rad etish;
- Mijoz yoki uning operatsiyasi sanksiyalar doirasiga kirsa yoki unga kirish xavfi mavjud bo'lgan taqdirda, bank Mijoz tomonidan o'tkaziladigan operatsiyani o'rganish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilishga, operatsiya summasini cheklash, operatsiyani cheklash (rad etish) yoki xizmat ko'rsatishni rad etish va mijoz bilan tuzilgan shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqlidir;
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari bilan Bank zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishga qaratilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish;

- omonatdagi mablag‘lar qoldig‘ining omonat daftaridagi yozuvlarga muvofiqligini tekshirish uchun Mijozning Bankka kelish zarurati to‘g‘risida Mijozni yozma yoki telefon orqali xabardor qilish;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu Shartnomani bekor qilish talabini qo‘yish;
- Omonat amaliyotlari bo‘yicha limitlar o‘rnatish.

5.2. Mijoz ushbu bilan Bank tegishli ma‘lumotlarni Bank veb-saytida kamida 10 (o‘n) kalendar kuni oldin joylashtirish orqali mijozni avvaldan xabardor qilgan holda quyidagilarni o‘z ixtiyoriga ko‘ra o‘zgartirishi mumkinligiga rozilik bildiradi, jumladan:

- Bank Tariflariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish: Bankka komissiya to‘lash va Mijoz tomonidan Xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq boshqa to‘lovlarni amalga oshirish miqdori, tartibi va shartlarini o‘zgartirish;
- Ushbu ofertaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish.

Mijoz Bank veb-saytida mazkur Oferta va Tariflarning yangilanishlarini mustaqil ravishda kuzatib borishi shart.

Ko‘rsatilgan muddatda Bank veb-saytida ma‘lumotlarni joylashtirish Mijozni tegishli tarzda xabardor qilish hisoblanadi.

### **5.3. Bank quyidagilarni o‘z zimmasiga oladi:**

- ushbu shartnomada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda Mijozning bank hisob raqamiga tushayotgan pul mablag‘larini qabul qilish va hisobdan chiqarish, Mijozning hisob raqamidan tegishli mablag‘larni o‘tkazish va yechib olish bo‘yicha topshiriqlarini bajarish, omonatga doir amaliyotlar bo‘yicha boshqa harakatlarni amalga oshirish;
- Mijozning hisob raqamiga pul mablag‘larini o‘tkazish yoki tegishli to‘lov hujjati Bank tomonidan qabul qilingan kunning o‘zida uning hisob raqamidan pul mablag‘larini chiqarish, agar u Bankning amaliyot o‘tkazish kuni (bankka kelib tushgan barcha to‘lov hujjatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks ettirish uchun ajratilgan, bank ish kunining bir qismi bo‘lib vaqt) da kelib tushgan bo‘lsa. Agar to‘lov hujjati amaliyot kuni tugaganidan keyin kelib tushgan bo‘lsa, Bank keyingi ish kunidan kechiktirmay to‘lovni amalga oshirishi shart;
- Mijozning hisob raqami bo‘yicha amaliyotlarni sir saqlash. Mijozning roziligisiz hisob raqam bo‘yicha amaliyotlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar faqat O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarida nazarda tutilgan holatlarda uchinchi shaxslarga taqdim etiladi;
- Mijoz oferta va tariflar bilan mustaqil ravishda tanishishi uchun Bankning [www.infinbank.com](http://www.infinbank.com) rasmiy saytiga Bank ofertasini va tariflarini joylashtirish;
- naqd pul qo‘yish uchun Mijozni ariza blankalari bilan ta‘minlash;
- Mijozning talabiga binoan hisob raqamdan o‘rnatilgan tartibda ko‘chirmalar taqdim etish.

5.4. Bank O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

5.5. Bank operatsiyalari bo‘yicha belgilangan limitlardan oshadigan operatsiyalar Bank tomonidan bo‘ljajak operatsiyaning O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiqligi tekshirilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

## **6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Mijoz o'zi tomonidan Bankka taqdim etilgan pul-hisob-kitob yoki boshqa hujjatlardagi ma'lumotlarning noto'g'riligi yoki soxtaligi uchun javobgar bo'ladi va Bankka bunday ma'lumotlarni taqdim etish natijasida yetkazilgan zararni qoplashi shart.

6.2. Mijoz telefon raqami o'zgarganligi haqida Bankni o'z vaqtida xabardor qilmagan taqdirda Bank Mijozning mobil telefoniga omonat to'g'risida SMS-ma'lumot jo'natganda bank sirlarining oshkor etilishi uchun, shuningdek, unga omonat bo'yicha xabarlarini o'z vaqtida yubormaganlik uchun javobgar bo'lmaydi.

6.3. Mijoz tomonidan omonat bo'yicha amaliyotlar Bank mobil ilovasi orqali onlayn tarzda amalga oshirilishida Mijoz tomonidan ehtiyotsizlikdan yoki qasddan bankning mobil ilovasiga kirish va foydalanish huquqini uchinchi shaxslarga berishi oqibatida Mijoz omonati va tegishli hisob varaqlari bo'yicha bajarilgan barcha amaliyotlar va ko'rilgan barcha zararlar uchun Mijoz to'liq javobgar bo'ladi.

6.4. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan holatlarda tomonlar (Bank va Mijoz) ushbu shartnoma bo'yicha o'z zimmlariga olgan majburiyatlarni buzganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.5. Bank mijozning boy berilgan foydasi, daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari doirasida hisobvaraqli bloklash natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi.

6.6. Mijozning login, parol yoki mobil raqamidan foydalangan holda amalga oshirilgan barcha harakatlar mijozning o'zi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi. Bank mijozlar ma'lumotlarini obro'sizlantirish oqibatlari uchun javobgar emas.

6.7. Bank Mijozning ma'lumotlarini o'zi oshkor qilishi natijasida, jumladan telefon, messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlar, tashqi veb-saytlar, havolalar orqali yoki ruxsatsiz dasturlarni o'rnatish orqali ma'lumotlarga kirishga ruxsat olgan uchinchi shaxslarning xatti-harakatlari natijasida yuzaga kelgan Mijozning yo'qotishlari uchun javobgar bo'lmaydi.

## **7. FORS – MAJOR**

7.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar ushbu shartnoma tuzilgandan keyin tomonlar oldindan ko'ra olmagan va oqilona choralar bilan oldini ololmagan favqulodda holatlar oqibatida yuzaga kelgan yengib bo'lmas kuch natijasida bo'lsa.

7.2. Yengib bo'lmas kuch holatlari yuzaga kelgan taqdirda, ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlari bunday holatlar va ularning oqibatlari amal qiladigan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

## **8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

8.1. Ushbu shartnoma Mijoz uni akseptlagan paytdan va omonat summasi Bankka kelib tushgan kundan boshlab tuzilgan deb hisoblanadi va tomonlardan biri uni bekor qilmaguncha amal qiladi.

8.2. Ushbu shartnoma Mijozning arizasiga binoan istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

8.3. Bankning talabiga binoan ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda bekor qilinishi mumkin.

8.4. Muddatli omonat shartnomasini bekor qilish Mijozning hisob raqamini yopish uchun asos hisoblanadi.

## **9. SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI**

9.1. Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiq, Mijoz Bankka o'z faoliyatini yuritish, Bank tomonidan mazkur shartnoma shartlarini bajarish hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa maqsadlarda Bank tomonidan Mijozning har qanday shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish va ulardan foydalanishga shartnomaning butun amal qilish muddatiga va u bekor qilngandan keyin besh yil mobaynida roziligini taqdim etadi.

9.2. Ushbu bilan Mijoz barcha aloqa vositalari: pochta tarqatmasi, SMS-tarqatma, ovozli tarqatma, elektron xatlar tarqatmasi va h.k.dan foydalangan holda, ammo ular bilan cheklanmasdan bevosita aloqalarni amalga oshirish yo'li bilan Bank xizmatlarini targ'ib qilish bilan bog'liq reklama materiallarini Bankdan qabul qilishga o'z roziligini bildiradi.

9.3. Omonat muddati tugaganidan keyin talab qilib olin-guncha omonatga pul mablag'lar o'tkazilgandan so'ng, Mijozning arizasiga asoslan:

- Agar bir yil davomida hisobvaraqa hech qanday operatsiyalar amalga oshirilmasa va hisobda qoldiq bo'lmasa, Bank shartnomani bekor qiladi va Mijozning hisobvaragini yopadi;
- Agar bir yil davomida hisobvaraqa bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilmagan bo'lsa va hisobvaraqa bo'yicha qoldiq mavjud bo'lsa, hisobvaraqdagi qoldiq Bank tomonidan harakatsiz hisob raqamiga o'tkaziladi, shundan so'ng ushbu shartnoma bekor qilinadi va Mijozning hisobvaragi yopiladi.

9.4. Agar Mijoz bank hisobvarag'idagi qoldiq harakatsiz hisobvaraqa o'tkazilganidan keyin 10 yil davomida ushbu qodiqni talab qilmasa, harakatsiz hisobvaraqdagi qoldiq "29840 – Moliya vazirligiga o'tkaziladigan talab qilib olinmagan depozitlar" hisobvarag'iga o'tkaziladi.

9.5. Agar texnik jihatdan imkon bo'lsa, omonat (omonat ochilayotgan filialda ochilgan barcha depozitlar) ochishda omonat qoldig'i, kirim va chiqim amaliyotlari to'g'risida va boshqa zarur ma'lumotlarni Mijozning mobil telefoniga yuborish uchun SMS-xabarnoma xizmati ulanadi.

9.6. Omonat bo'yicha amaliyotlar to'xtatib qo'yilgan holatlarda, Bank amaliyotlar to'xtatilgan kundan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmay Mijozga uning hisob raqamiga xizmat ko'rsatish to'xtatib qo'yilganligi va uning sabablari to'g'risida ma'lumot (xabar) yuboradi.

9.7. Kreditlar, mikroqarzarlar va lizing bo'yicha qarzlarni to'lash uchun omonatdan pul mablag'lari Mijozning topshirig'isiz yechib olingan taqdirda, Bank pul mablag'lari hisobdan chiqarilgan kundan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmay Mijozga pochta orqali yechib olingan summa va buning sabablari, shuningdek u kimning foydasiga amalga oshirilganligi haqida xabarnoma yuboradi.

9.8. Ushbu Shartnomaning 9.6 va 9.7-bandlarida nazarda tutilgan ma'lumotlar (xabarnomalar) Mijozga shaxsan, elektron aloqa va boshqa aloqa kanallari orqali ham yetkazilishi mumkin. Mijoz ma'lumotni (xabarnomani) yetkazib berish usulini Bankka shaxsan kelib yoki pochta orqali yozma ariza berish yo'li bilan o'zgartirishga haqli. Shu bilan birga Mijozdan qabul qilingan ariza Bank tomonidan uning bank hisob raqamiga doir yig'ma jildda yoki omonat hisob raqamlari bo'yicha alohida kartotekada saqlanadi. Ma'lumotnomani (xabarnomani) Mijozga yetkazib berish usulining o'zgarishi munosabati bilan ushbu shartnomaga o'zgartirishlar kiritish talab etilmaydi.

9.9. Hisobvaraqdan foydalangan holda bank operatsiyalarini masofaviy amalga oshirishda Mijoz quyidagilar haqida ogohlantiriladi:

- noqonuniy operatsiyalarga aralashib qolish xavfi Mijozning zimmasida ekanligi haqida;
- Mijoz noqonuniy operatsiyalarga aralashib qolgan takdirda, bank O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tegishli choralar ko‘rishi haqida.

9.10. Ushbu Shartnomadan kelib chiquvchi barcha nizolarni tomonlar ikki tomonlama muzokaralar yo‘li bilan hal qiladilar. Agar tomonlar kelishuvga erishmasalar, tomonlar o‘rtasidagi nizo:

- yo Bank (hisob raqam qaerda ochilganligiga qarab Bank filiali, Amaliyot boshqarmasi, bank xizmatlari markazi) joylashgan manzil bo‘yicha sudda;
- yoki O‘zbekiston Respublikasi SSP yoxud O‘zbekiston Respublikasi SSP Toshkent shahar boshqarmasi qoshidagi hakamlilik sudida hal etiladi.

9.11. Ushbu Taklifni qabul qilish orqali Mijoz Shartnomaning barcha shartlarini so‘zsiz qabul qilganligini tasdiqlaydi va uni bajarish majburiyatini oladi.

9.12. Bank ushbu Ofertaning yangi tahririni va Bank Tariflarini veb-saytga joylashtirish orqali ushbu Oferta shartlariga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega. Kiritilgan o‘zgarishlar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilganidan so‘ng 10 kalendar kun o‘tgach Bank va Mijoz uchun majburiy bo‘lib qoladi.

9.14. Agar Bank tomonidan yangi tahrirdagi ushbu Oferta va (yoki) Tariflar Bankning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgandan so‘ng, Mijoz ushbu shartnomani bekor qilmasa va bank xizmatlaridan foydalanishni davom ettirsa (shu jumladan, hisobvara q bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish, masofaviy kanallardan foydalanish yoki hisobvara qdagi mablag‘larni boshqacha tarzda tasarruf etish), Mijozning bunday xatti-harakati yangi shartlarni qabul qilish va ularga to‘liq rozilik berish hisoblanadi.

9.15. Ushbu Ofertaning shartlari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo‘lgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalari qo‘llaniladi.

9.16. Bank Omonat-chiga ushbu shartnoma tuzish va uni bajarish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan Bank bilan bog‘lanish imkoniyatini ta‘minlaydi. Bu bog‘lanish aloqa vositalari orqali amalga oshiriladi, jumladan (biroq ular bilan cheklanmagan holda): kontakt-markazning telefoni, elektron pochta, mobil ilova orqali. Bank ko‘rsatilgan aloqa vositalari orqali murojaatlarni qabul qilish va o‘z vaqtida ko‘rib chiqishni ta‘minlaydi.

## **10. OMONAT BO‘YICHA KOMPENSATSIYALAR TO‘LASHNING UMUMIY PRINSIPLARI**

10.1. Ushbu bo‘limda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**agent-bank** — kafolatlangan omonatlar bo‘yicha kompensatsiya to‘lash uchun Omonatlarni kafolatlash agentligi tomonidan tanlab olingan bank;

**kafolatlash ob‘ekti** — omonatchining Bankdagi O‘zbekiston Respublikasining “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq kafolatlanadigan pul mablag‘lari;

**kafolatlangan omonat** — kafolatlangan omonatlar bo‘yicha kompensatsiya to‘lanadigan kafolatlash ob‘ekti yoki uning bir qismi;

**kafolatlangan omonatlar bo'yicha kompensatsiya** (bundan buyon matnda kompensatsiya deb yuritiladi) — kafolatlash hodisasi yuzaga kelganda Omonatlarni kafolatlash agentligi tomonidan to'lanadigan pul mablag'lari;

**kafolatlash hodisasi** — bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani chaqirib olish va Bankni majburiy tugatish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qaror qabul qilinishi natijasida yuzaga keladigan holat;

**omonatchi** — Bank bilan ushbu shartnomani tuzgan mijoz yoki omonat uning foydasiga qo'yilgan shaxs.

**Omonatlarni kafolatlash agentligi** — davlat muassasasi bo'lib, u banklardagi omonatlarning himoya qilinishini kafolatlash sohasidagi vakolatli organ hisoblanadi.

10.2. Kafolatlash ob'ekti egasi bo'lgan Omonatchida kafolatlash hodisasi yuz bergan sanadan e'tiboran Agentlikdan kafolatlangan omonat miqdoridan oshmagan summada kompensatsiyalar to'lashni talab qilish huquqi, Agentlikda esa kafolatlash ob'ekti egasi bo'lgan Omonatchi oldida kompensatsiyalarni to'lash majburiyati yuzaga keladi.

10.3. Kompensatsiyaning summasi kafolatlash hodisasi yuz bergan sanaga hisob-kitob qilinadi va tugatuvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 29-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq taqdim etiladigan reyestr asosida Agentlik tomonidan to'lanadi. Bunda, agar Omonatchining Bank oldida majburiyati mavjud bo'lsa, kompensatsiya summasi kafolatlangan omonat (kafolatlangan omonatlar) va Omonatchining Bank oldidagi ijro muddati yetib kelgan majburiyati (majburiyatlar) summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

10.4. Kompensatsiya quyidagi shaxslarga to'lanadi:

- Omonatchiga, shu jumladan o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarga;
- uchinchi shaxslarga, agar omonat uchinchi shaxslar, shu jumladan o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar foydasiga qo'yilgan bo'lsa;
- qonuniy vakillarga yoki qonuniy vakillarning roziligi bilan voyaga yetmagan shaxslarga, agar omonat o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmagan uchinchi shaxslar foydasiga qo'yilgan bo'lsa.

10.5. Agar kafolatlash ob'ekti Omonatchining yoki uchinchi shaxsning tugatilayotgan bank yoki uchinchi shaxs oldidagi majburiyatlarining bajarilishi ta'minoti sifatida garovga qo'yilgan bo'lsa, kompensatsiya:

- kafolatlash hodisasi yuzaga kelgan sanada yoki agent-bank tomonidan kompensatsiya to'lash uchun belgilangan muddat davomida qarzdor tomonidan olingan majburiyat bekor bo'lgan (bajarilgan) taqdirda, Omonatchiga to'lanadi;
- majburiyat bekor bo'lmagan (bajarilmagan) taqdirda, majburiyatning bajarilish ta'minoti sifatida Omonatchining boshqa bankda ochilgan hisobvarag'iga o'tkaziladi.

10.6. Agar kafolatlash hodisasi yuzaga kelgan sanada kafolatlash ob'ekti omonatchining tugatilayotgan bank oldidagi majburiyatining bajarilishi ta'minoti sifatida garovga qo'yilgan bo'lsa hamda uning miqdori faqat mazkur majburiyatni bajarish uchun yetarli bo'lsa, kafolatlash ob'ekti majburiyatni bajarishga yo'naltiriladi.

10.7. Chet el valyutasidagi kafolatlangan omonat bo'yicha kompensatsiya O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning kafolatlash hodisasi yuzaga kelgan sanadagi kursi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida to'lanadi.

10.8. Bankda Omonatchiga to'lanadigan kompensatsiya quyidagi miqdorni tashkil etadi:

- kafolatlash ob'ekti qoldig'ining to'liq hajmini, agar uning miqdori ikki yuz million so'm yoki undan kam bo'lsa;
- ikki yuz million so'mni, agar kafolatlash ob'ekti qoldig'i ikki yuz million so'mdan ko'p bo'lsa.

10.9. Omonatchi Bankda bir nechta kafolatlash ob'ektlariga ega bo'lgan taqdirda, mazkur kafolatlash ob'ektlari bo'yicha to'lanadigan kompensatsiyaning umumiy miqdori kafolatlash ob'ektining miqdori va valyutasidan qat'i nazar, ushbu shartnomaning 10.8-bandida ko'rsatilgan miqdordan oshmasligi kerak, bundan O'zbekiston Respublikasining "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 28-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan holatlar mustasno bo'ladi.

10.10. Omonatchiga umumiy summasi ushbu shartnoma 10.8-bandida ko'rsatilgan miqdordan oshadigan bir nechta kafolatlangan omonatlar bo'yicha kompensatsiya to'langan taqdirda, kompensatsiya har bir omonatning tugatilayotgan Bankdagi umumiy omonatlar miqdoridagi ulushiga mutanosib ravishda to'langan deb hisoblanadi.

10.11. Qonunchilikka muvofiq meros huquqini yoki huquqiy vorislikni tasdiqlovchi barcha zarur hujjatlar taqdim etilganda kompensatsiya merosxo'rlar va huquqiy vorislar yoki ularning vakolatli vakillariga to'lanadi.

10.12. O'zbekiston Respublikasining "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonunga asosan to'lanadigan kompensatsiyalar tugatish jarayonidagi Bankdan ushbu shartnoma bo'yicha qaytarilayotgan pul mablag'lari deb hisoblanadi.

10.13. Omonatni kompensatsiya qilish bo'yicha ushbu oferta bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan hal etiladi.

## **11. BANK REKVIZITLARI**

**"InfinBank" AJ**

**STIR: 206 942 764, MFO: 01041, OKED (IFTK): 64190**

**Manzil: 100029, Toshkent sh., T. Shevchenko ko'chasi, 1-uy**

**Qisqa raqam: (1214)**

